

## PAST O‘ZLASHTIRUVCHI O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING DOLZARB MASALALARI

Sarsenbaeva Asiya Baxtiyar qizi

*Toshkent viloyati Qibray tumanidagi 31-umumiyo‘rta maktabi boshlang‘ich sinf  
o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta‘lim - tarbiya berish jarayoni, darsliklarda berilgan bilimlarni berish jarayonida o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularning o‘z tengdoshlari qatoriga yetib olishini ta‘minlash, bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirish, bilimlarni egallashida yuzaga keladigan muammolarni va ularni yechish qo‘llaniladigan metodikalar, shuningdek bu orqali erishilgan yaxshi natijalar kabi masalalar ochib beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *boshlang‘ich sinf, ta‘lim, tarbiya, o‘quvchi, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, interfaol yondashuv, faollikni oshirish.*

### KIRISH

Zamonaviy ta‘limning eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan. Ta‘lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta‘lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo‘llaniladigan an‘anaviy kategoriyalar bo‘lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriyalar ma‘lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo‘yicha o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi. Zamonaviy o‘qituvchi dars jarayonida «aktyor» emas, aksincha «rejissyor» bo‘lishi kerakligini anglashi lozim. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta‘lim usullarini yaxshi bilishi kerak.

Darhaqiqat yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning, umuman, ilm-fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo‘lib yetishishiga zamin yarata olmaymiz. Eng avvalo, boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarga to‘g‘ri va maqsadga muvofiq bilim berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kuzatishlar asosida aytib olamizki, boshlang‘ich ta‘lim davrida o‘quvchida o‘yin faoliyatining o‘rnini o‘qish faoliyati egallaydi. O‘qib-o‘rganish bolaning vazifasi, ijtimoiy burchi bo‘lib qoladi. O‘qish jarayonida u darsliklarini va o‘quv qurollarini saranjom saqlash, o‘z vaqtida o‘rnidan turish, maktabga belgilangan vaqtda borish, uyga berilgan vazifalarni bajarish yuzasidan ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi. O‘quvchi tobora mas‘uliyatli bo‘lib boradi. Bilimlar bolaning saviyasini o‘stiradi, aqliy rivojlanishini ta‘minlaydi, sezgilari va irodasining o‘shishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Biroq, bu davrda ham bolaning diqqati hali beqaror bo‘ladi. Boshlang‘ich sinfdan o‘quvchi xotirasida ham o‘zgarishlar ro‘y beradi. O‘quvchi birinchi sinfdan boshlab, ta‘lim jarayonida o‘quv materialining ko‘p qismini ixtiyoriy ravishda eslab qoladi. Shu bilan birga o‘z-o‘zini doimo nazorat qilib borishi lozim. Buning natijasida o‘quvchining xotirasi takomillashadi, tafakkuri o‘sadi. 7-8 yoshli bolalarda ham tafakkur hali konkret xarakterda bo‘ladi. Ular o‘zlari idrok etgan yoki tasavvur qilgan narsalar haqidagina fikr yuritadilar. Mantiqiy tafakkurning dastlabki ko‘rinishlari shakllana boshlaydi. Uchinchiva to‘rtinchi

sinflarda o'quvchilar ilmiy bilimlarga oid ayrim tushunchalarni ham o'zlashtirib oladilar. Bu davrda o'quvchilarning ruhiyatida hissiy kechinmalar yuz beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida biror fanga, darsga nisbatan qiziqish yuzaga keladi. Ular ta'lim olishni burch ekanligini anglab yetadilar. Dars vaqtida o'quvchi faoliyatiga qo'yilgan yuqori baho o'quvchilarda ruhiy tetiklik, shodlik, iftixor kabi hissiy kechinmalarni tug'diradi. Ammo o'quvchilar orasida fanlardan orqada qolish, o'zlashtirishi past baholanadiganlari ham uchrab turadi. Ushbu o'quvchilar bilan har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi alohida ishlarni olib borishi va ulardagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlab, imkon qadar bunga yechim topishi zarur. Shunday ekan boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi har tomonlama yetuk, o'tkir diplomat, o'z kasbini ustasi, intellektual salohiyatga ega shaxs bo'lishi shart.

Har bir boshlang'ich sinfda dars berish jarayonida fanlarni o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilarga duch kelamiz. Bu o'quvchilar bilan ishlash o'qituvchidan yuqori malaka talab qiladi. Bu jarayonda o'qituvchi yangi metodikalari qo'llashi, past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning faolligini oshirishi va bu orqali past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning boshqa tengdoshlari qatoriga yetib olishini ta'minlash lozim. Shundagina har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'ya olgan va har bir o'quvchi bilan individual ishlash jarayonini amalga oshiradi olgan hisoblanadi.

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish yaxshi samara beradi. Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida ta'limga uyg'un holda rivojlanishi kerak. Buning uchun, avvalo, o'quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli bajarishiga ishonch uyg'otish lozim.

Mustaqil ish turlari, avvalo, o'qituvchi tomonidan puxta o'ylangan, ta'lim maqsadiga yo'naltirilgan va davomiy bo'lishi kerak. Bunda har bir o'quvchining imkoniyati hisobga olinishi, yosh xususiyati, qiziqishlari ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. O'quvchilarni aqliy rivojlantirish shartlaridan biri topshiriqlarni to'la "eslab qolib" bajarishdir. Bunda bajariladigan ishning maqsadini tushungan(tasavvur qilgan) holda uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash, yo'l qo'yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uni tuzata bilishlariga alohida e'tibor beriladi. O'quvchilarning topshiriqlarni tez, to'g'ri bajarishi uchun qulay usullarni tanlash, yo'naltiruvchi savollar berib, tayanch so'zlar tavsiya etish foydalidir.

Kichik maktab yoshi davrida faoliyatni va xulq-atvorni motivlashtirish o'ziga xos xususiyatlarga ega. "Bolalar nimani yaxshi ko'rishadi va nimani istashadi?" degan savolga S.T.Shatskiy shunday javob beradi:

Bolalarda til topishish instinkti kuchli rivojlangan, ular bir-birlari bilan tezda tanishib oladilar - o'yinlar, hikoyalar, o'zaro gap sotish, lofchilik kabilar ana shunday instinkning belgilaridir.

Bolalar tabiatan mohir tadqiqotchi. Ulardagi tez qo'zg'aluvchanlik, oxiri ko'rinmaydigan savollar, hamma narsaga tegib ko'rish, ushlab ko'rish, tatib ko'rishga intilish sababi ana shunda.

Bolalar o'zini ko'rsatib turgisi keladi, o'zi haqida, o'z taassurotlari haqida gapirgisi, o'rtoqlashgisi keladi. O'z menligini tez-tez namoyish etib turishi ana shundan. Uning fantaziyalari va tasavvurlari boy bo'ladi - bu bolalar ijodkorligi instinktidir.

Bolalar hech narsadan bir narsa yaratishni, qandaydir g`ayrioddiy narsalarni to`qib chiqarishni yaxshi ko`rishadi.

Bolalarda xarakterning shakllanishida taqlidchanlik instinkti katta rol o`ynaydi.

Boshlang`ich ta`lim jarayonida bo`sh o`zlashtirishni vujudga keltiruvchi omillar, o`zlashtirmovchi o`quvchilarning psixologik xususiyatlarini o`rganish ta`lim jarayonida o`quvchi o`zlashtirmasligining oldini olishga yo`naltirilgan chora – tadbirlar tizimini ishlab chiqish imkonini beradi. bo`sh o`zlashtirishning oldini olish bo`yicha tadbirlar tizimi har bir o`quvchi real o`quv imkoniyatlarining barcha asosiy tarkibiy qismlarini kompleks rivojlantirishga, ya`ni shaxsning intellektual, irodaviy, hissiy sohalarini bir vaqtda rivojlantirishga, uning ta`lim va tarbiyasini ta`minlash, o`qishga va jamoaga ijobiy munosabatini rivojlantirish, uning ishga qobiliyatini shakllantirishga yo`naltirilgan bo`lishi kerak. O`quvchi real o`quv imkoniyatlaridan birining shakllanishi muhimligini yetarlicha baholamaslik, bu tizimning yaxlitligiga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Natijada bo`sh o`zlashtirishning muvafaqqiyatli oldini olishga olib kelmaydi.

Boshlang`ich sinflarda o`quvchilarni zo`riqish va turli psixologik ta`sirlardan asrash, qiziqarli o`yinlar orqali bilimlarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. O`qituvchi o`quvchilarni ziyraklik va chaqqonlikka hamda fikrini to`g`ri va aniq ifoda etishga undovchi o`yinlardan foydalanishi samarali natija beradi. Masalan, “G`oyib bo`lganini top” o`yinida turli geometrik shakllar yozuv taxtasi yoki magnitli doskaga tartibsiz joylashtiriladi. O`quvchilar shakllarni ko`rib bo`lgach, o`qituvchi “Tun”, deydi. Bolalar ko`zini yumadi. O`qituvchi shakllardan bir nechtasini olib, yashiradi va “Kun”, deydi. O`quvchilar ko`zini ochib, qaysi shakllar g`oyib bo`lganini aytishi kerak.l

Bo`sh o`zlashtiruvchi o`quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash o`qituvchidan alohida sabot va mas`uliyatni talab etadi. Shu bois bu toifa bolalar bilan shug`ullanish uchun, avvalo, yakkama-yakka suhbat o`tkazib, ularning qiziqishlarini aniqlash lozim. Maxsus jurnal tutilib, bolalarning o`zlashtirishini muntazam monitoring qilib borilishi, o`quvchilarga qiynalayotgan fanidan alohida mashg`ulotlar daftari tuttirish kabi usullar ham samarali hisoblanadi. Shuningdek o`quvchilardagi ijobiy o`zgarishlar rag`batlantirilishi muhim.[4].

Bo`sh o`zlashtiruvchilarning faolligini oshirish uchun ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini hamda nutqini rivojlantirish kerak. Bunda turli ertaklardan foydalanish mumkin.

O`qituvchi dars o`tishda boshqa ko`plab usullardan ham foydalanishi lozim. Eng muhimi, ular samara berishi.

Shuningdek, o`zlashtirishi past o`quvchilar uchun O`qish darslarni tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali nafaqat o`quvchining o`qish savodxonligi ortadi, shu bilan birgalikda dunyoqarashi ham kengayadi. Ayniqsa, boshlangich sinf o`qish darsligida juda ham ko`plab hikoyalar beriladi.

O`qish darsida hikoyaning rejasini tuzish uchun quyidagicha xotiranoma juda foydalidir.

Hikoyani o`qi.

Uni qismlarga ajrat.

3. Har bir qismdagi asosiy masalalarni top. 4. Har bir qismga sarlavhalar qo`y.

5. Qismlarning sarlavhalaridan reja tuz.

O`quv topshiriqlarining har xil turlaridan foydalanish o`quvchilarni ishga. ijodiy yondashishga va nazariy bilimlarni amalda qo`llashga yordam beradi. Bunga erishish uchun

o‘quvchilarning bilimlarini ularning dastlabki tushuncha, tasavvur va ko‘nikmalarini shakllantirgan materiallardan boshqacha materiallar asosida mustahkamlash va takomillashtirish kerak. Shuningdek, bu materiallar ko‘p variantli topshiriqlardan tashkil topib, ularning har biri o‘ziga xos bilishga doir va mantiqiy topshiriq bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. O‘rganish mashqlarining ana shunday yoiga qo‘yilishi o‘quvchilar ongida yangi bog‘lanishlar hosil bo‘lishiga va shunga ko‘ra materialning yaxshiroq o‘zlashtirilishiga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar davlat ilg‘or ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish muhim masala hisoblanadi. Chunki o‘sha o‘quvchi an‘anaviy darslarda, yoki har doim jamoa bo‘lib o‘tkaziladigan darslarda ta‘limni o‘ziga qabul qila olmagan. Shunday ekan past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan dastlab barcha metodikalari individual qo‘llab, keyin ularni jamoaviy metodikalar va doimgidek ta‘lim-tarbiyada jarayoniga jalb qilish kerak.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlash jarayonini tashkil etishda zamonaviy ta‘lim-tarbiyada texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, yangi metodikalar fan foydalanish bilan bir qatorda ta‘lim texnologiyalarini ham bu jarayon bilan uzviy ravishda bog‘lab borishimiz kerak deb o‘ylayman. Biz shu orqali pedagogik faoliyatga va o‘quvchilar bilan ishlash samaradorligini oshirishga to‘g‘ri yondashgan bo‘lamiz va passiv o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini o‘z o‘rnida shakllantirishga erishamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - T.: O‘zbekiston, 2017. - 104 b.
2. Intizor Jumaniyozova. "Boshlang‘ich ta‘lim jurnali. 2022-yil 8-apreldagi soni. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". 1997. - 31-60-betlar.
3. Suvonov O. va boshqalar. «Pedagogik texnologiyalarni qo‘llash davr taqozosi». «Xalq ta‘limi», 2004 yil, № 5.
4. Musurmonov A. "Ta‘lim-tarbiyada xalq og‘zaki ijodidan foydalanish". T.: O‘qituvchi, 1993.
5. Mavlonova. A.R. "Umumiy pedagogika". 166-bet.